

Mardanova Mohira Davron qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
mardanovamohira02.gmail.com

EVFEMIZMLARNING ETNOMADANIY MULOQOT UNSURI SIFATIDA O'RGANILISHI

Annotatsiya: Maqolada Evfism etnomadaniy qadriyat sifatida o'zbek va ingliz muloqot unsuri sifatida o'rganilishini kengroq yoritib berilishiga qaratilgan. Yuqorida qayd etilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish rejalashtirilgan: har ikki tilda evfimsmlarning tasnifini o'rganish, evfimsmlarga oid ma'lumotlar va ma'lumotlarni to'plash va bu muammolarni bir necha misollar bilan ochib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Madaniyat, Etnomadaniy qadriyatlar, urf-odatlar, madaniyat fenomeni.

Abstract: The article focuses on the study of Euphisim as an ethno-cultural value as an element of Uzbek and English communication. In order to achieve the above-mentioned goal, the following tasks are planned: to study the classification of euphemisms in both languages, to collect data and information about euphemisms and to reveal these problems with several examples.

Key words: Culture, Ethnocultural values, traditions, cultural phenomenon.

Kirish

Axloqiy madaniyat tizimida qadriyatlar alohida va yuksak ahamiyatga ega. Ular xalq o'tmishi bilan bog'liq bo'lib, ma'naviy tarbiyaga ehtiyoj va zarurat

kuchayganda, ma'naviyat muammosi dolzarblashgan bir paytda mo'tabar bir

tushuncha, o'tmish va kelajak uyg'unligini ta'minlovchi muqaddas omil, axloqiy

muvozanatni barqarorlashtirishda yengilmas kuch sifatida qaraladi. Qadriyat

kategoriyasi, ayniqsa, milliy yuksalishning muhim pallalarida milliy ozodlik, hurlik, erkinlik, o'lmas urf-odatlar va udumlar, milliy o'zlik tushunchalari bilan mustahkam bir sirada qaraladi. Jamiyat, millat va shaxs uchun o'ta yuksak ahamiyatga molik narsa, hodisa va voqealar: erkinlik, ezgulik, tenglik, tinchlik, haqiqat, ma'rifat, madaniyat, moddiy va ma'naviy boyliklar, obida-èdgorliklar, go'zallik, axloqiy xislat hamda fazilatlar, an'ana, urf-odatlar, udum va boshqalar qadriyat tizimini tashkil etadi. Qadriyat keng qamrovli va serqirra tushuncha bo'lib, uning falsafiy, axloqiy, ma'rifiy, lingvistik kabi ko'plab jihatlariga egaligi tavsif va talqin qilishni murakkablashtiradi. Hodisaning serqirraligi uning izohi va talqinida nomukammalliklar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Etnomadaniy qadriyatlar o'zlikni saqlab qolish, himoya qilish, etnik va milliy konvergentsiyalar xavfidan omon qolishga va etnik mustaqillik asosida rivojlanishga, etnik ong va dunèqarashni tobelikdan xoli tutishga xizmat qiladi. Etnik qadriyatlar etnik jamoaviylikning asosidir. Etnik jamoa esa genetik, ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-jo'g'rofiy omillarning ta'siri ostida yuzaga keladi. Bu esa qonuniy va ob'ektiv jarayon bo'lib, o'zini anglash va o'zgalardan farqlash asosida sodir bo'ladi. O'zlikni anglash va bu o'zlikning boshqalaridan farqlarini anglab yetish har qanday milliy yoki etnik ongning zamirida yotadi. Inson ong va o'zlikni anglash jarayonini sodir etuvchi faol

sub'ektdir. Albatta, ong anglashni keltirib chiqaradi. S.L.Rubinshteynning quyidagi fikrlari ahamiyatli: — Ong o'zni anglash, shaxs «men»idan tug'ilmaydi, o'zni anglash shaxs onginging rivojlanishi davrida, qachonki u real mustaqil sub'ekt bo'lib shakllangandagina paydo bo'ladi. Etnik o'zlikni anglash, bizning xohish-irodamizdan qat'i nazar, sotsial ong shakllaridan biri sifatida xususiyat, xarakter va obrazlarni zid qo'yish asosida shakllanadi. O'z va o'zga farqlanadi. Farq asosida munosabatning turi vujudga keladi. Bu – tabiat va inson, inson va inson, inson va ruh kabi ko'rinishlarda yuzaga chiqadi. Etnik madaniyatni qadriyatlar ko'zgisida turlicha tasavvur qilish holatlari ko'p uchraydi[19;56]. Shu ma'noda keyingi vaqtlarda olim va siësatshunoslar xalqlar orasidagi madaniy-tsivilizatsion farqlar qiymatining o'ziga xosligi millatlararo va davlatlararo konfliktlar sababi ekanligi haqida to'plangan tajriba va xulosalar asosida tadqiqotchilarning asosiy e'tiborini etnoslar orasida nifoq tug'ilishiga, ularning birbiridan ajralishi, begonalashuvi, èvlashuviga olib keladigan qadriyatlarga qaratishmoqda. Har xil etnomadaniyat orasidagi nifoqlarga alohida qadriyatlar ko'zgisida nazar tashlagan

Adabiyotlar tahlili

R.Benedikt o'z davrida shunday èzgan edi: «har bir madaniyat, boshqalari nazdida, fundamental ongni mensimaydi, to'g'atmaydi va mavjud bo'lmagan narsalarni ishlab chiqaradi. Bir madaniyat qiyinchilik bilan pullar qadriga yetsa, boshqasi uchun esa ular kundalik turmush, xulq asosidir. Texnologiya hatto bir jamiyat haëtining muhim sohalari, jabhalarida misli ko'rilmagan tarzda zaif, o'ta primitiv, boshqa birida esa texnologik yutuqlar murakkab va ma'lum bir vaziyatlar uchun juda mohirlik bilan hisob-kitob qilingan. Bir jamiyat yoshlikning, ikkinchisi – o'limning, uchinchisi esa o'limdan keyingi hayotning ulkan madaniy superstrukturasini quradi.»

Tadqiqot metodologiyasi F.Bart va S.Xantington kabi g'arb olimlari ham xalqlarni bo'lib tashlashga olib keladigan muayyan etnik va sivilizatsion qadriyatlar haqida ham qimmatli fikrlarni bildirishgan. F.Bart etnoslarning chegarasini belgilaydigan, etnik farqlarni ko'rsatadigan madaniy qadriyatlar qiymati xususida to'xtalsa, ikkinchisi xalqlarni aniq-tiniq ajratadigan muayyan madaniy-tamadduniy qadriyatlarni ko'rsatadi. Shunday qilib, individualizm, liberalizm, qonun ustuvorligi, erkin bozor va b. G'arbiy Yevropa, AQSh amerikaliklari uchun o'ta ahamiyatli qadriyat bo'lib, bu islom, konfutsiychilik, provoslav va boshqa madaniyatlar uchun ma'lum darajada begonaligi bilan xarakterlanadi. Ma'lumki, alohida, uzilgan, sistemadan ajratilgan qadriyatlarni farqlovchi va muayyan etnomadaniyat belgilovchisi sifatida qarash yetarli emas. U etnomadaniyatning qiyosiy mohiyatini ochishga xizmat qiladi, biroq u yoki bu madaniyatni yaxlit idrok etish (ya'ni u ayni paytda etnoslararo munosabatlarni to'g'ri tushunish va boshqarishda muhim ahamiyatga ega) uchun asos bo'la olmaydi. Bu esa har bir etnosning madaniy rivojlanishi uchun ishonchli strategiya, etnoslararo hamkorlik munosabatlarining uzoq muddatli istiqbolini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar va natijalar

Etnomadaniyat yaxlit sistema bo'lib, madaniyatning har bir elementi sistema tarkibida ahamiyatga ega. Masalan, madaniyatning bir shaklini boshqa madaniyat tarkibida qarash unga kutilmagan tus beradi. Buryatlardagi so'yilgan molning qonini mehmonga qo'yish holatini o'zbek milliy madaniyati tarkibida, o'zbeklardagi qaynatilgan qo'yning kallasini eng aziz mehmonga qo'yish, mol go'shtini iste'mol qilishni hind madaniy tizimida baholash mumkin emas. Etnik madaniyatni sistemaviy qadriyat sifatida tavsiflash har xil tushunilishi mumkin. Masalan, G.Olport bunda asosiy 6 motivga tayanish lozimligini ta'kidlaydi: nazariy, iqtisodiy, estetik, sotsial, siësiy va diniy. U èki bu motivatsiyaga muvofiq ravishda madaniy tiplar namoèn bo'ladi. Olaylik, iqtisodiy tip tevaraka-atrofdagi narsalarni foydalilik nuqtai nazaridan sistemalashtiradi, estetika uchun shakl va uyg'unlik, sotsial motivatsiya uchun xalqqa

muhabbat, siësiy motivatsiya va hokimiyat uchun kurash madaniyati muhim hisoblanadi va qadriyat tusida bo'ladi[42;49]. Til umumbashariy va umuminsoniy qadriyatga daxldor bo'lsa, milliy til milliy qadriyat, tilning lahja va shevalari etnik qadriyat ifodalovchisi sifatida mavjud. Tilning qadriyatlar tizimi bilan munosabati lingvomadaniyatshunoslik sohasidagi eng chigal va murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Til qadriyatmi, qadriyat ifodalovchisimi degan savollarning qo'yilishi va unga nisbatan javoblarning turlichaligi va ko'p hollarda, birining ikkinchisiga ziddiyatli mohiyatga egaligi ham ana shu holatlar bilan bog'liqdir. «Til madaniyat fenomeni sifatida madaniy o'zini o'zi tashkil etish vositalariga ega bo'lib, u to'g'ri lisoniy muloqot o'rnatish uchun xizmat qiladi. Og'zaki tillarda nutq so'zlashning folklor qoidalari mavjud bo'lib, barcha xalqlar orasida deyarli bir hil tarzda nutq xaqidagi maqollarda shakllanadi. ...tartibga solishning vositalari tashkil etuvchi sifatida tilning o'z tarkibiga kiradi va aloqa madaniyatini ta'minlaydi.» Ko'p asrlardan beri til va madaniyat, til va qadriyat munosabati muammosi kun tartibidan tushmay kelayotir. Muammo bugungi kunda kun tartibida bor bo'yi bilan namoën bo'ldi va munozaralar maydoniga aylandi. Muammo uch yo'nalishda qaralmoqda:

1) qadriyat va til o'zida butun-qism munosabatini aks ettiradi;

2) til qadriyatning ifodalovchisidir;

3) til qadriyatning unsuri ham, shakli ham emas. E.Sepir madaniyatni

jamiyatning hatti-harakati va o'y-fikri, tilni esa uning qanday fikrlashi deb biladi.

Til madaniyatning kodi, uning ifodalovchi belgisi, unga tayangan holda

madaniyatning mohiyati haqidagi tasavvurlar shakllanadi. Shu asosda aytish

mumkinki, til har qanday holda ham, o'z sohibining milliy-mental mansubligini ko'rsata olar ekan, muayyan madaniy muhitda tegishli lisoniy muhit ham mavjud ekan, demak, til va qadriyat, til va madaniyat munosabati makoniy va zamoniylilik asosida o'zaro bog'lanadi. Tilning qadriyatlar bilan bog'liqligini bir necha ko'rinishlarda tushunish mumkin: a) til asosida qadriyatlar xususida axborot olinadi; b) til qadriyatlar haqidagi bilimlarni o'zida saqlaydi. Masalan, milliy-mental qadriyat sifatida mavjud bo'lgan o'zbekona andisha qadriyati andisha so'zi zamirida, unga o'rangan holda mavjud. Andisha qadriyat bo'lganligi uchun u ushbu so'z bilan atalganmi, yoki andisha so'zi ushbu holatni paydo qiladimi degan savollarning qo'yilishi tilning semiotik vazifasi nuqtai nazaridan mantiqsiz tus oladi. Zero, andisha so'zi andisha emas, shu so'z ifodalaydigan voqelik andisha, ya'ni qadriyatdir. Shu ma'noda aytish mumkinki, «Madaniyat «til qobig'ida» yashaydi va rivojlanadi. Ilgari madaniyat «buyumlashgan» bo'lsa, zamonaviylari borgan sari verballashib boradi. Til madaniyatga xizmat qiladi, lekin uni ta'riflamaydi; u borliqning o'rnini go'ëki so'z bilan ifodalangan sarob kabi verbal illyuzalarni yaratishga qodir. Til – bu kishi madaniyat haqida ma'lumot oladigan vositadir; bu insonning madaniyatda mavjudligida yotadi» Muloqot antrpotsentrik yondashuvning markaziy masalalaridan biriga aylandi.

Xulosalar

Diqqat qilinsa, tevarakdagi rang-baranglik va turli-tumanliklar etnik madaniyat va qadriyatlar fonida yanada murakkablashadi. Biri ikkinchisini aynan takrorlaydigan narsani topish dargumon. Tabiat, jamiyat va inson shuuridagi har xilliklarni ko'z oldimizga keltiraylik. Tevaragimizdagi odamlar-chi? Tashqi ko'rinishi, tili, dini, fikri, orzumaqsad, armonlari,

muomala-munosabatlari... Tasavvurni tafakkur izmiga bo'ysundirmaslikning iloji yo'q. Ana shu sharoitda muloqot madaniyatining roli va o'rni qay darajada bo'lishi lozim?

Jamiyatda o'z o'rini topish va uni saqlash ilinjidagi har bir zot uchun bu masala yo

hayot, yo mamot, yo najot yo falokat, yo saodat, yo halokat maqomida ekanligini

inkor qiluvchi topilarmikin? Bu holat «ong osti» yoki «ong usti» kabi ayqashi boralar bilan ham tushuntirilishi mumkin. Inson uchun nondan keyingi eng aziz narsa maktabdir. (Rus xalq maqoli).

Adabiyotlar

1. Omonturdiyev A. Professional nutq evfemikasi. – Toshkent: Fan, 2006. – 232 b. 2. Omonturdiyev A., Omonturdiyev J. So'z qo'llash san'ati. – Termiz: Jayxun, 1994. – 60 b.

3. Poroxnitskaya L.V. Kontseptualnye osnovaniya evfemii v yazyke (na materiale angliyskogo, nemetskogo, frantsuzskogo, ispanskogo i italyanskogo yazykov): avtoref. dis. ... d-ra filol. nauk: 10.02.19; 10.02.20. – M., 2014. – 45 s. 4. Poroxnitskaya L.V. Kulturologicheskie i kognitivnye printsipy evfemii v sovremennom angliyskom yazyke: avtoref. dis. ... kand. filol. nauk: 10.02.04.

– Moskva, 2004. – 21 s. 4.

5. Davronovna, M. M., & Muhammadiyevna, D. S. (2024, April). TILSHUNOSLIKDA EVFEMIZMLARNI O'RGANISHNINING. In *International Conference on Linguistics, Literature And Translation (London)* (Vol. 2, pp. 22-25).

6. Boboqulovna, A. D., Davronovna, M. M., & Muhammadiyevna, D. S. (2024, April). NON-LITERARY VOCABULARY OF THE ENGLISH LANGUAGE. In *Actual Problems in Higher Education in the Era of Globalization: International Scientific and Practical Conference* (Vol. 7, pp. 62-65).

7. Davronovna, M. M., & Muhammadiyevna, D. S. (2024). THE PROBLEM OF STYLISTIC CLASSIFICATION OF VOCABULARY. *ILM-FAN TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY QARASHLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR*, 14, 12-15.

8. Muhammadiyevna, D. S. (2024). The Role of Euphemisms in World Linguistics. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(1), 124-127.

9. Muhammadiyevna, D. S. (2024). ANALYSIS OF JARGONS IN NEWSPAPER. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 4(1), 139-142.

10. Muhammadiyevna, D. S. (2024). Semantic Classification of the Uzbek Touristic Terminology. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(1), 120-123.

11. Mardanova, M., & Tojiyev, M. (2024). EUPHEMISM AS AN ELEMENT OF ETHNOCULTURAL COMMUNICATION. *Ilm-fan va ta'lim*, (8 (23)).

12. Sobirjonovna, S. M., & Murodullayevna, Q. M. (2023). Chet tillarni oqitish nazariyasi va uning maqsadi. *Journal of Universal Science Research*, 1(4), 150-158.